
FARG'ONA VILOYAT PERINATAL MARKAZIDA LOYIHA QIYMATI 19 MILLIARD SO'MDAN ZIYOD BO'LGAN YANGI NEONATAL BLOK QURIB FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, aholi, ayniqsa, ona va bola salomatligini muhofaza qilishga, sog'lom avlodni shakllantirishga alohida e'tibor qaratib kelinayotganini qayd etgan viloyat hokimi, bu borada o'tgan 2022 yilning o'zida viloyatimizda jami 64 ta tibbiyot muassasalarida qariyb 150 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini ta'kidladi. Loyiha qiymati 19 milliard so'mdan ziyod bo'lgan ushbu bino ham, so'nggi yillardagi sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarning samarasi ekani qayd etildi.

Joriy yilning 30 aprely kuni mamlakatimizda bo'lib o'tadigan muhim siyosiy tadbir - "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasi bo'yicha umumxalq referendumiga ham to'xtalib o'tgan viloyat rahbari, yangi Konstitutsiya fuqarolarning tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga bo'lgan huquqlarini mustahkamlashiga, Qomusimizdan sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini rivojlantirish masalasi ham alohida o'rin olganiga e'tibor qaratdi.

Ramziy tasma qirqilib, tadbir ishtirokchilari yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

Yangi binodan viloyat aholi reproduktiv salomatlik markazi, konsulyativ poliklinika, 18 o'rinli chaqaloqlar reanimatsiyasi, 20 o'rinli kam vaznli va chala tug'ilgan chaqaloqlar uchun parvarish bo'limi, shahar va tumanlardan kelayotgan chaqaloqlar uchun 20 o'rinli chaqaloqlar xastaligi bo'limi hamda laboratoriya bo'limi joy oldi.

Mazkur zamonaviy muassasada chaqaloqlarga tor doiradagi mutaxassislar tomonidan maxsuslashgan tibbiy yordam ko'rsatish va bolalarni katamnestic kuzatuvini olib borish imkoni yaratildi. Bu o'z o'rnida nogironlikni ham kamaytirishga yordam beradi.

Tadbirda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov ishtirok etdi.

2023-04-06 11:14:25